

**Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori B.S.Jamilova taqrizi ostida**

**Sattorova Shahlo Shavkat qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Buxoro davlat universiteti doktoranti (PhD) Uzbekistan

**[shahlosattorova1610@gmail.com](mailto:shahlosattorova1610@gmail.com)**

ORCID ID: 0009-0008-6830-8200

---

## **INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA OBYEKTIV VA SUBYEKTIV MODALLIK**

**Annotatsiya:** Modallik kategoriyasining ilk bor ingliz va o‘zbek ertaklari misolida qiyoslab o‘rganilishi tilshunoslik ilmi oldida turgan dolzARB vazifalardan sanaladi. Modallik kategoriyasini qiyoslashda tillararo lingvomadaniy farqlar yorqin ifodalanadi. Modalik milliy obrazlar ya’ni turli xalqlarning madaniy konseptlari bilan chambarchas bog’liq bo’ladi. Shuningdek modallik kategoriyasining jihatlarini aniqlash barobarida har birining lingvokognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarni olib berish tilshunoslik ravnaqiga keng yo’l ochadi. Mazkur maqolada fikrning vogelikka bo’lgan munosabatlarining turli xil ko’rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya bo’lgan modallikning o’ziga xosliklari, ingliz va o‘zbek ertaklari matnida modallik kategoriyasining ifodalanish xususiyatlari, modallik kategoriyasining rivojlanishida til va madaniyatning o’rni, kognitiv tilshunoslik haqida qarashlar, ingliz va o‘zbek ertaklaridagi milliy-madaniy o‘xhashliklar va differensial belgilari olib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kognitiv tilshunoslik, madaniyat, modal paradigma, modal sillogistika, mantiqiy imkoniyat, modallik modeli, natural falsafa, funksional modallik.

**Kirish.** Dunyo tilshunosligi tarixidagi bir necha asrlik tajribalar ko’rsatadiki, minglab turli xil oqim namoyondalari o‘zlarini tanlagan yo’llarini tilni tadqiq etishdagi eng maqbul yo’l deb hisoblaganlar. Shuningdek bu yo’lda o‘rganish obyektini va uning mohiyatini ko’rsatib berishga butun umrlarini sarflaganlar. Jahon xalqlari madaniy va ma’naviy boyliklari bilan tanishish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O’zaro qiyoslash esa munosib baholashga imkon yaratadi. Til ijtimoiy hodisa bo’lib, u jamiyat paydo bo’lishi bilan yuzaga keladi va u bilan uzviy hamkorlikda rivojlandi. Shuningdek tillanish jarayonida jamiyatdagi barcha iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarning markazida bo’lib, ularni o’zida aks ettirib turadi. Tilda bo’layotgan barcha o‘zgarishlarni tilshunoslik fani atroficha o‘rganadi. Har qanday fan esa o’z navbatida odam ehtiyoji tufayli yuzaga keladi va rivojlanadi. Jamiyat o’z taraqqiyotini ta’minlash uchun hamma davrda ilm fanni rivojlantirish va uning muammolarini tadqiq etishga e’tibor beradi.

Antik falsafada to’rtta tarixiy modal paradigma mavjud: modallikning chastotali talqini, kuch sifatidagi imkoniyat modeli, vaqtning ma’lum bir momentiga nisbatan oldingi ehtiyojlar va imkoniyatlar modeli (diaxronik modalliklar) va imkoniyat modeli - qarama-qarshilik. Boethius asarlari orqali ilk o’rta asrlarda yaxshi ma’lum bo’lgan ushbu fikrlash odatlarining hech biri bir vaqtning o’zida alternativalarga murojaat qilishni o’z ichiga olgan modallik g’oyasiga asoslanmagan. Ushbu yangi paradigma G’arb tafakkuriga XII asr boshidagi munozaralarda Avgustinning Xudo haqidagi ilohiyot tushunchasi ta’sirida muqobil tarixlar o’tasida tanlov asosida harakat qilgan holda kiritilgan.

Modal atamalarni bir vaqtning o’zida muqobil variantlar bilan bog’lash haqidagi yangi g’oya XIII asr ilohiyotida ham qo’llanilgan bo’lsa-da, u o’sha davrda falsafiy kontekstlarda ko’p muhokama qilinmagan. Aristotel falsafasining tobora ko’proq qabul qilinishi an’anaviy modal paradigmalarni qo’llab-quvvatladи, bu Robert Kilvardbining “Aristotelning Prior Analytics” haqidagi ta’sirli sharhida ko’rinib turibdi, unda modal sillogistika borliq tuzilmalarining essensiyyaviy nazariyasi sifatida qaraladi. Arab falsafasida ham falsafiy va teologik modalliklarga oid o‘xhash munozaralar bo’lgan. Arab modal nazariyalari lotin tilidagi munozaralarga, asosan, Averroes asarlarining tarjimalari orqali ta’sir ko’rsatdi.

Jon Duns Skotus muqobillik sifatida modallik modelini batafsil nazariyaga aylantirdi. Mantiqiy imkoniyat - bu jirkanch bo’lmagan narsa, garchi uni boshqa imkoniyatlar bilan birlashtirib bo’lmasa ham. Skotusning modal semantikasi XIV asr boshlari falsafasi va ilohiyotiga ko’p jihatdan ta’sir ko’rsatdi. XIII asrning essensitik

taxminlari modal sillogistikadan olib tashlandi, uning Aristotel versiyasi modal takliflarning turli xil nozik tuzilmalarini etarli darajada tushuntirmsandan, parcha-parcha nazariya sifatida qaraldi. Modallikning Aristotelcha chastotali talqini kech o'rta asrlar mantig'ida o'rinni topilmagan bo'lsa-da, u natural falsafada rol o'ynashda davom etdi.

**Materiallar va uslublar.** M. M. Bikel o'z qarashida modallikni mazmunan obyektiv ham, subyektiv ham tushuncha bo'lmay, uni nisbatan obyektiv hisoblaydi: "Modallik bu — voqelikni so'zlovchi — "men" subyektining nuqtayi nazari bilan tushunish, lekin bu nuqtayi nazar "birinchi va oxirgi marta" tilning hozirgi holati uchun tilning o'zining vositalari orqali umumiylashgan, mujassamlashgandir".[1]

F. Bryuno tilshunoslikda mavjud bo'lgan "ma'nodan shaklga" tamoyiliga asoslanib, istak, taxmin, ishonch, iltimos, inkor kabi modal tushunchalarning qanday yo'llar bilan ifodalanishini tahlil qilib, modallikni ikki sinfga ajratgan: real va eventual (taxmin). F.Bryuno fikricha, "Modallik kategoriyasini ifodalovchi vositalarga ohang (iltimos, nafrat, tasdiq, ajablanish, xursand bo'lish, zaruriyat, rad etish, ruxsat etish va h.k.), zamon (modal fe'llar, modal to'ldiruvchilar: ravish, ravishli ibora, ko'makchilar, bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplar), so'z tartibi va fe'l mayllari kiradi".[2]

S. O'. Boymirzayeva o'zbek tili materiali asosida matn modalligi muammosini o'rganadi. Modallik kategoriyasining kommunikativpragmatik xususiyatlarini, matnning kognitiv va ma'noviy maydonida faollahuvchi ko'rsatkichlarini aniqlaydi. Matn modalligining mazmuniy turlarini farqlash, ularni tavsiflashga harakat qiladi. Olima matn modalligini tahlil qilar ekan, asosiy e'tiborni subyektiv modallik turlarining matnda voqelanishiga qaratadi: "...subyektiv modallik quyidagi turlarga bo'linadi: emotiv, epistemik, deontik va aksiologik".[3]

J.A.Yoqubov o'z tadqiqotida mantiq bilan tilshunoslikni o'zaro bog'lab modallik kategoriyasining semantik xususiyatlarini ohib berishga harakat qilgan. Olimning fikricha, "modallik kategoriyasi bir tomonidan mantiq ilmi bilan bog'lab tahlil qilinsa, ikkinchi tomonidan mazkur semantik kategoriya tilshunoslikda lisoniy birliklar bilan ifodalanadi. Mantiq va tilning hozirgi aloqalari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu ikki fandagi nazariy tushunchalarning mos tushishi bir-biridan farqlanadigan tillar taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi".[4]

Ingliz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasini qiyosiy o'rganish izlanuvchidan dastlab ikki noqardosh tildagi ushbu vositalarning tavsifi va tasnifini talab etadi. Keyingi bosqichda esa o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlanishi lozim. Oxirgi qadam esa ushbu ikki tilda keltirilgan misollar orqali berilgan faktlarni dalillash hisoblanadi. Masalan, qiyoslash metodi orqali olib borilgan izlanishlarda ingliz tilida modal ma'no qo'shimchalar orqali ifodalanmasligi, lekin o'zbek tilida, aksincha, qo'shimchalar modal ma'no ifodalashning keng foydalaniladigan vositalaridan biri ekanligi aniqlandi.

**Natijalar va muhokamalar.** Modallik kategoriyasi lisoniy birliklarda namoyon bo'lib, obyektiv modallik diktumga, subyektiv modallik esa gapda ifodalangan obyektiv mazmunga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi va modusga kiradi. Bu holda sintaktik modallik gapni shakllantirishdagi o'rnii va subyektning gap mazmunidagi munosabat darajasiga qarab ikki guruhga – obyektiv va subyektiv modallikkaga bo'linadi. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik zamiridagi qo'shimcha modallikkir.[5]

**Xulosa.** Demak, so'zlovchining kommunikativ niyati, uning gap mazmuniga emotSIONAL munosabatini bildiruvchi subyektiv modallik garchi gapning faollashtiruvchi qismi bo'lsa ham, ularning tabiatini va gap tuzilishidagi asosiy roli shunchalik turli-tuman bo'lib, ularni faqat grammatik rejada "turli sathlilik", semantik rejada so'zlovchining "munosabatini ifodalash" belgisi ostida birlashtirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bikel' M. M. Linguistic means of expression of motivation and their stylistic meaning (based on the material of the German language)), extended abstract of Doctor's thesis, Leningrad, 1968, 17 p

2. Brunot F. La pensée et la langue: Methode, principe et plan d'une théorie nouvelle du langage appliquée au français. — P.: Masson, 1965. — 982 p.
3. Boimirzaeva S. Matn modalligi (Text modality), Tashkent: Fan, 2010, 151 p.
4. Ёкубов Ж.А. Модаллик категориясининг мантиқ ва тилда ифодаланишининг семантик хусусиятлари. — Т.: Фан, 2005. — 224 6.
5. Jo‘rayeva M.M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. – T.:Fan, 2016. – 198 b.